

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING
JIZZAX FILIALI**



**RAQAMLI JAMIYATDA FAN VA TA’LIMNING INTEGRATSIYALALASHUVI:
MATEMATIKA, IQTISOD, PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYANING YANGI
YONDASHUVLARI**
mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2026-yil 20-21-aprel)

JIZZAX-2026

Raqamli jamiyatda fan va ta’limning integratsiyalalashuvi: matematika, iqtisod, pedagogika va psixologiyaning yangi yondashuvlari. Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to’plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali Amaliy matematika kafedrası, 2026-yil 20-21-aprel 505-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo’yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarini qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to’plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo’nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o’qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Tovboyev, t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O’ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo’rayev M.M.

Mazkur to’plamga kiritilgan ma’ruza tezislarning mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to’g’riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o’zlari mas’uldirlar.

yordam beradi. Bu esa o'qituvchilar uchun muhim ahamiyatga ega, chunki ular o'quvchilarning shaxsiy va professional rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Shuningdek, kreativ pedagogikadan foydalanish, boshqa ta'lim sohalari bilan ham o'zaro bog'liqlikni ta'minlaydi. Masalan, biologiya darslarida san'at va madaniyat elementlarini kiritish, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini yanada kengaytiradi va ularni fan va san'at o'rtasidagi aloqalarni tushunishga undaydi. Bunday yondashuvlar, o'quvchilarga yanada kengroq fikrlash imkoniyatini beradi va ularni ta'lim jarayonida faol ishtirok etishga rag'batlantiradi. Umuman olganda, kreativ pedagogikaning asosiy yondashuvlari, biologiya o'qitishda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan muhim elementlardir. Ushbu yondashuvlarning amaliy qo'llanilishi, o'quv jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishga yordam beradi. Keyingi bo'limda, kreativ pedagogikaning zamonaviy yondashuvlari bilan bog'liq konkret misollar va amaliy tadqiqotlar ko'rib chiqiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Дусчанова Н. С. Замонавий педагогик ёндашувлар: киёсий таҳлил hojamqulov77@mail.ru Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 3 | 2022 ISSN: 2181-1385. 183-196-betlar.
- 2.Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.210 p.
3. Karimova N.A Biologiyani o'qitishda o'quvchilarni kasbga yo'naltirish shakllari. // Ilmiy metodik jurnal-4 Mugallim hem uzliksiz blimlendiri. Nekis 2020.- B. 54-57 b
- 4.Эргашева Г.С. Умумий ўрта таълим мактаб биология дарсликлари ўқув материалларини лойиҳалашнинг дидактик асослари. Дис”” автореф. п.ф.н. –Тошкент, –2006. – 245 б.

FATIK NUTQIY AKTLARNING SEMANTIK-PRAGMATIK KLASSIFIKATSIYASI

Akramova Dilnoza Numonjanovna

Andijon davlat Pedagogika Instituti “Amaliy xorijiy tillar” kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola fatik nutqiy aktlarning turlari va ularning qo'llanilish jihatlari haqida so'z yuritilgan bo'lib, uning suhbat ishtirokchilariga bog'liqligi haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, maqola fatik nutqiy muloqotlarning ingliz va o'zbek tillaridagi misollar bilam boyitilgan

Kalit so'zlar: fatik nutqiy akt, suhbat, hurmat, odob-axloq, nutqiy vaziyat, fatik belgi.

Kirish. Muloqot insonlar uchun xos xususiyat bo'lib, muhim omil hisoblanadi. Insonlar nafaqat ma'lumot ulashish, savolga javob olish, ogohlantirish yoki boshqa sabablarga ko'ra muloqot qiladilar, balki ular o'z xisssiyotlarni so'zlar orqali ifodalaydilar, o'z munosabatlarini bildiradilar. Bu insonlarni boshqa jonzotlar, masalar, qushlar, hayvonlar va xatto hasharotlar muloqotidan ham farqlaydigan asosiy xususiyatdir. Bundan tashqari, insonlar muloqotida yana bir o'ziga xoslik borki, u ham bo'lsa, salomlashish, suhbatni tamomlashda qo'llaniladigan so'z birikmalari va hamda hushmuomalalik yuzasidan ishlatiladigan iboralardir. Ushbu maqolada biz, fatik nutqiy aktlarning bugungi kundagi tizimli tahlilini amalga oshirishga harakat qilamiz.

Fatik nutqiy aktlar pragmatiklikda ko'plab olimlar tomonidan o'rganilganligiga qaramay, hali haniz qizg'in muhokama etiladigan mavzulardan hisoblanadi. Tilshunoslikda fatik muloqotning ikki xil talqini mavjud bo'lib, birinchi taxmin nutqning asosiy vazifasi pragmatik funktsiya ekanligini ta'kidlagan B. Malinovskiyning g'oyalariga asoslanadi. Uning fikricha, “oddiy so'zlar almashinuvi orqali suhbatni mustahkamlash mumkin”. Ikkinchi talqinga ko'ra esa, ushbu turdagi nutq insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni boshqarishga qaratilgan va

ularning munosabatlarini yomonlashtirishi ham, yaxshilash yoki saqlab qolishi ham mumkin. Biroq, u axborot almashishni o‘z ichiga olmaydi.

Fatik muloqot “nutqiy harakatlarlarning o‘zgarmas qismi” sifatida axborot almashish uchun qo‘llanilmaydi. R. Jakobsonning fikricha, tilning fatik funksiyasini asosan muloqot qiluvchilar: xabarni jo‘natuvchi (so‘zlovchi) va qabul qiluvchi (tinglovchi) o‘rtasidagi aloqa bilan bog‘liq deb ta’riflagan. Fatik nutq - bu suhbatdoshlar o‘rtasida kommunikativ aloqani saqlab qolish maqsadida qo‘llaniladigan nutqiy akt bo‘lib, natijada so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi maxsus munosabatlarga erishiladi [Kornilova 2013: 3]

Bizning fikrimizcha, odatiy fatik nutqiy aktlarga bu ba’zi kirish elementlari, jumla bog‘lovchilari, murojaat shartlari, odob-axloq formulalaridir. Eng ko‘p ishlatiladigan fatik belgilardan biri murojaat atamasi hisoblanadi. Uning muloqot jarayonidagi ahamiyati yuqori bo‘lib, ba’zan ba’zi til birliklari o‘zining leksik ma’nosidan mahrum bo‘lib qoladi, masalan, kirish elementlari “Look” (Qarang), “Listen” “Tinglang” va boshqalar. Bunday undovlar fatik nutqiy akt sifatida namoyon bo‘lganida, buyruq emas, balki tinglovchining e’tiborini jalb qilish uchun qo‘llaniladi.

“Listen to me, Jennie,” he said earnestly, “you mustn’t think that way.” (Jennie Gerhardt, Th.Dreiser)

“Look here, Jennie”, he said, “you don’t understand how things are done.” (Jennie Gerhardt, Th.Dreiser)

Bizning fikrimizcha, fatik belgilarni to‘liq va batafsil tasniflash qiyin, sababi ular tilning turli darajalariga tegishli va ular juda ko‘p farq qiladi va diversifikatsiya qiladi. Biz til birliklari turli funksiyalarni bajarishini yodda tutamiz va shuning uchun, agar ular ma’lum sharoitlarda kommunikativ funksiyani bajarsa, til birliklarini fatik belgilar deb hisoblaymiz. So‘zlovchi fatik belgilardan foydalanishga qiziqadi, chunki birinchidan, ular tinglovchiga qaratilgan hamda ular unga tinglovchining e’tiborini jalb qilish imkoniyatini beradi, ikkinchidan, ular so‘zlovchining o‘ziga qaratilgan, chunki ular nima deyish yoki qanday deyish haqida o‘ylash uchun vaqt ajratish imkonini beradi. Tinglovchi shuningdek, fatik belgilardan foydalanadi, ammo bu holda ular asosan so‘zlovchiga murojaat qilish uchun ishlatiladi. Umuman olganda, har safar nutq harakati sodir bo‘lganda, fatik belgilar mavjud.

Odatda muloqot salomlashishdan boshlanadi, bu esa suhbatdoshlarning yoshi, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi va suhbatdagi rolariga bevosita bog‘liq.

Salomlashganda ba’zan qo‘l uzatish va siqish ham kuzatiladi, ammo bu odat xalqlarning mentalitetidan kelib chiqadi. Yevropa xalqlari uchun erkak kishi va ayol kishilarning qo‘l berib salomlashishi oddiy holday tuyulsa, islom diniga mansub sharq mamlakatlari uchun biroz noqulay hisoblanadi. Ingliz tilida salomlashish kunning mahaliga qarab farqlansa, o‘zbek tilida “Assalomu alaykum” kunning har qanday paytiga mos kelaveradi. Biroq, ingliz tiliga mos ravishda “Good morning” o‘zbek tilida “Hayrli tong” shaklida, “Good afternoon” “Hayrli kun” hamda “Good evening” “Hayrli oqshom” sifatida yangrasgi ham mumkin.

Muloqot davom etishi borasida, suhbatning muddaosiga o‘tiladi hamda uning so‘nggida esa hayrlashadilar. Bunda, “Good bye”(Hayr), “See you”(Ko‘rishguncha), “See you tomorrow”(Ertaga ko‘rishguncha), Bye-bye”(Hayr-hayr), “Take care”(O‘zingizni ehtiyot qilish) kabi jumlar ko‘p qo‘llaniladi. Ba’zan suhbatdoshlar bir-birlariga “Thank you”(Rahmat), “Vaqtinizni ayamagangiz uchun tashakkur”(Thank you for your time) kabi iboralarni qo‘llaydilar.

Munosabatlarda iliqlik paydo bo‘lishi bu shirinso‘z va muloyimlik bilan muomala qilish orqali paydo bo‘ladi. Masalan. Yangi kiyim kiyilganda, “Qulluq bo‘lsin” yoki “Buyursin”, “Yaxshi kunlarga kiying” jumlarini o‘zbek tilida ko‘plab uchratishimiz mumkin. Ingliz tilida

esa bu quyidagicha namoyon bo‘ladi: “Nice dress/shirt”, “It suits you well” yoki “What a nice dress/shirt”.

Chaqaloq tug‘ilganida “Umri bilan, rizqi bilan bergan bo‘lsin” “Chaqaloq muborak bo‘lsin” singari iliq tilaklar bildiriladi. Ingliz tilida “May Allah bless the newborn”, “May the baby live a long life” kabi qutlovlarni kuzatishimiz mumkin.

Agar suhbat taomlanayotgan paytda qurilsa, “Have a good appetite” (yoqimli ishtaha) “Help yourself” (osh bo‘lsin, olib o‘tiring) singari fatik muloqotlar ham qo‘llaniladi. Bunday fatik nutqiy aktlarga javoban esa “Thank you” (Rahmat) javobini eshitish mumkin.

Uzr so‘ralganda, so‘zlovchi “Sorry”, “I am sorry” (Uzr, kechiring) jumalari qo‘llanilib, uning javobi “Not at all”, “It’s O.K.” (hechqisi yo‘q) shaklida uchraydi. Ba’zan uzr so‘ralganda uning sababi keltirilishi ham mumkin. Masalan. “Sorry to disturb”, “Sorry for bothering you” (bezovta qilganim uchun uzr).

Xulosa

Bizning tadqiqotimiz natijasi sifatida quyidagi xulosalarni hosil qilishimiz mumkinki, fatik nutqiy aktlar tinglovchining e’tiborini kuchaytirish maqsadida qo‘llaniladi hamda suhbatning maqsadiga qarab turli fatik muloqotlardan foydalaniladi. Suhbatdoshlarning yoshi, ijtimoiy kelib chiqishi va suhbatdagi rolga qarab aynan qanday fatik muloqotlardan foydalanish aniqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Austin J.L. How to do things with words. The William James Lectures delivered at Harvard University in 1955. — Oxford: Clarendon Press, 1962. — 166 p.
2. Bakhtin M.M. Aesthetics of verbal creativity. - M.: Art, 1979. - 424 p.
3. Van Dijk T.A. Studies in the Pragmatics of Discourse. — The Hague: Mouton, 1982. — 331 p.
4. Kobozeva I.M. The theory of speech acts as one of the variants of the theory of speech activity // New in foreign linguistics. - M.: Progress, 1986. - Issue. 17. - pp. 7-21.
5. Gabdreyeva N.V. Mezhyazykovye leksicheskiye korrelyatsii: semasiologicheskiye otnosheniya//Nauchnoye obozreniye: gumanitarnye problemy. – M., – 2016. – No. 6.– P. 112–116.
6. Zinnatullina G.Kh. Osobennosti upotrebleniya prozvisch v proizvedeniyakh khudozhestvennoy literatury//Izvestiya Volgogradskogo gosudarstvennogo pedagogicheskogo universiteta. Seriya “Filologicheskiye nauki”, – 2013. – No. 4 (79).– P. 72–77.
7. Formanovskaya N.I. Russky rechevoy etiket: lingvistichesky i metodichesky aspekty 1987.– M.: Russky yazyk,– 1984. – 158 p.

DEMETER VA PERSEPHONE MIFIDA ONA–QIZ MUNOSABATLARI: ARXETIPIK MODEL DAN INDIVIDUAL PSIXOLOGIYAGA O‘TISH

F.I. Nuriddinova

Namangan Davlat Chet tillar Insituti tadqiqotchisi:

Annotatsiya

Mazkur maqolada qadimgi yunon mifologiyasiga mansub Demeter va Persephone haqidagi mif asosida ona–qiz munosabatlarining arxetipik va psixologik talqinlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — ushbu mifda aks etgan an’anaviy arxetipik modelning zamonaviy psixologik yondashuvlar, xususan, individuatsiya va subyektivlik nazariyalari doirasida qanday transformatsiyaga uchraganini aniqlashdan iborat.

Maqolada Demeter obrazi ona mehrining, himoya va nazoratning ramzi sifatida, Persephone esa mustaqillikka intiluvchi va o‘z identitetini izlovchi subyekt sifatida talqin